

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

Logoevistika pretsedent fenomen sifatida.....	540
<b>V.Xegay</b>	
Intertekstual bosma sarlavhalarda oldingi matnlarni rasmiy ravishda yangilash .....	544
<b>Y.Niyazova</b>	
Chet tili sifatida ingliz tilida yozishni o'rgatishning ba'zi muammolari.....	548
<b>Z.Tashtemirova, M.Kushmatova</b>	
Rus va ingliz tillarida odamning ko'rinishini tavsiflovchi frazeologik ekvivalentlar .....	552
<b>Sh.Xashimova</b>	
Temur Po'latov ijodi haqidagi ba'zi mulohazalar.....	556
<b>I.Azimov</b>	
O'zbek-lotin alifbosini yaratish uchun harakatlar .....	560
<b>Sh.Nurmuradova</b>	
Texnika oliy o'quv yurtlarida rus tilini o'qitish metodikasi va uning tashkil etilishi .....	567
<b>B.Xolmirzaev</b>	
Tildagi tasviriy ifodalarning tarjimalarda aks etishi.....	573
<b>A.Eshniyazova</b>	
Zamonaviy qissa tabiati.....	578
<b>R.Ibragimova</b>	
Milliy udumlar – milliy qadriyatlarni shakllantiruvchi mezonidir .....	582
<b>D.Xoshimova, M.Xusaynova</b>	
Termin va terminologiyaning tarixiy tadriji va ular haqidagi ilmiy qarashlar .....	586
<b>V.Sultanova</b>	
O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning didaktik usullari .....	589
<b>M.Xusenova, Sh.Zoitova</b>	
Chet tili o'rganish jarayonida ko'p uchraydigan xatoliklar (koreys tili misolida) .....	594
<b>C.Samiyeva</b>	
Tojik tilidagi frazeologik evfemizmlar .....	597
<b>Sh.Amonturdiyeva</b>	
Diniy matnlarga xos leksik xususiyatlar, uning boshqa funksional uslubga xos matnlar bilan o'xshash va farqli jihatlari.....	601
<b>FANIMIZ FIDOYILARI</b>	
<b>KARIMBERDI EGAMBERDIYEVICH ONARKULOV</b> .....	605

## O'QUVCHILARDA MULOQOT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK USULLARI

## ДИДАКТИЧЕСКИЕ МЕТОДЫ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ ОБЩЕНИЯ У ШКОЛЬНИКОВ

## DIDACTIC METHODS OF FORMING A CULTURE OF COMMUNICATION AMONG SCHOOLCHILDREN

Sultanova Venera Kalmuratovna<sup>1</sup><sup>1</sup>Sultanova Venera Kalmuratovna

– O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish va didaktik usullari haqida fikr yuritiladi. Mavjud nazariy yondashuvlarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek maktablarining 5-9-sinflarida o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari alohida tadqiq etilmagan. Tadqiqot maqsadi: o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini ochib berishdir. Tadqiqot metodlari: anketa, savol-javob, suhbat, kuzatish, tahlil, analitik obzor, pedagogik eksperiment. Tadqiqot natijasida muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan amaliy vositalarning izchil tizimi ishlab chiqildi. O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-didaktik xususiyatlari ko'rsatib berildi.*

**Аннотация**

*В данной статье рассматривается формирование культуры общения у учащихся и дидактические методы. Результаты изучения существующих теоретических подходов свидетельствуют о том, что педагогические основы формирования культуры общения у учащихся 5-9 классов узбекских школ не исследовались отдельно. Цель исследования: раскрыть дидактические возможности формирования у учащихся культуры общения. Методы исследования: анкета, вопрос-ответ, беседа, наблюдение, анализ, аналитический обзор, педагогический эксперимент. В результате исследований была разработана последовательная система практических средств, способствующих формированию культуры общения. Показаны социально-дидактические особенности формирования культуры общения учащихся.*

**Abstract**

*This article discusses the formation of a communication culture among students and its didactic methods. The results of the study of existing theoretical approaches indicate that the pedagogical foundations of the formation of a culture of communication among students of grades 5-9 of Uzbek schools have not been studied separately. The purpose of the study: to reveal the didactic possibilities of forming a communication culture among students. Research methods: questionnaire, question-answer, conversation, observation, analysis, analytical review, pedagogical experiment. As a result of the research, a consistent system of practical tools has been developed that contribute to the formation of a culture of communication. The socio-didactic features of the formation of the culture of communication of students are shown.*

**Kalit so'zlar:** muloqot madaniyati, didaktik usullar, muloqot ko'nikmalari, texnik vositalar, hamkorlikdagi vaziyat, shaxslararo munosabatlar, hayotiy tajribalar.

**Ключевые слова:** культура общения, дидактические методы, коммуникативные навыки, технические средства, ситуация сотрудничества, межличностные отношения, жизненный опыт.

**Key words:** communication culture, didactic methods, communication skills, technical means, cooperation situation, interpersonal relationships, life experience.

**KIRISH**

Faoliyatning turli sohalarida madaniyat muayyan bilimlar va ijtimoiy tajribani o'zlashtirish orqali tarkib topadi. Muloqot madaniyati esa, ijtimoiy voqelikni o'zlashtirish orqali inson ruhiyati ichki tuzilishining shakllanishi natijasida vujudga keladi.

Muloqot madaniyati tushunchasi ostida boshqalar bilan zarur aloqani o'rnatish va muntazam saqlash xulq-atvori tushuniladi. Muloqot madaniyati tarkibiga samarali munosabatni ta'minlovchi bilimlar, ko'nikmalar, malakalar mujassamlashgan bo'ladi. Bu esa, muloqot madaniyatining chuqurligi va keng ko'lamliligini taqozo qiladi. Bu jarayonda muloqotdoshini tushunish va unga tushunarli bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Muloqot madaniyati – shaxslar orasidagi muntazam rivojlanuvchi va ma'lum darajada anglab yetilgan tajribadir. U bevosita aloqadorlik va birgalikdagi harakat natijasida shakllanadi.

O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish jarayoni uning rivojlanishi bilan bevosita bog'liqdir. Muloqot me'yorlarini boshqarish vositalari inson madaniyatining tarkibiy qismi hisoblanadi. Muloqot madaniyatini taqdim etish va boyitish ham xuddi mana shu me'yorlar asosida amalga oshiriladi. Bu esa, madaniy merosni o'zlashtirish va ko'paytirish imkonini beradi. Muloqot tajribasini o'zlashtirish ko'p jihatdan o'zaro aloqadorlik jarayonida amalga oshiriladi.

Manbalarning guvohlik berishicha, teatr, kino, badiiy adabiyot yordamida ham inson muloqot vaziyatlari haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladi. Mazkur vositalarda shaxslararo muammolar va uni yechish masalalari o'z ifodasini topgan. Muloqot ko'nikmalarini egallash jarayonida inson madaniy vositalar bilan aloqa o'rnatadi, kommunikativ vaziyatlarni tahlil qiladi va vizual shakllarni egallaydi.

Muloqot madaniyati bevosita inson bajaradigan ijtimoiy rollar bilan bog'liqdir. Muloqot madaniyati muloqotning verbal va noverbal vositalarini egallash va erkin qo'llashga moslashishni taqozo qiladi. Muloqot madaniy kategoriya sifatida insonning o'z-o'zi, tabiat, ijtimoiy muhit bilan munosabatlarini boshqaradigan hodisadir. Shunga ko'ra, individual-shaxsiy sifatlar, ijtimoiy-madaniy, tarixiy tajribalar o'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantiruvchi omillardir. Muloqot madaniyatining muhim vazifalaridan biri, kommunikativ vositalarning bahosi bo'lib, ular o'zaro mos keladigan tahlillar va vaziyatlar interpretatsiyasini ta'minlaydi. Mazkur bahoni tashxislash uchun bir qator metodikalar mavjudki, ular turli muloqot vaziyatlarini erkin tahlil qilish asosida vujudga kelgan.

O'quvchidagi muloqot madaniyati darajasini o'rganishning muhim metodlaridan biri – texnik vositalarni jalb qilgan holda, tabiiy yoki maxsus tarzda tashkil etilgan o'yin vaziyatlarini kuzatish metodidir. Bu jarayonda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar mazmun-mohiyatiga ko'ra tahlil etiladi.

Biz tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda, o'quvchilar nutqining maromi, tezligi, to'xtalishlar, noverbal texnikalar, mimika va pantomimikalar, kommunikativ vaziyatlarning tashkil etilishi kabilarni kuzatishga harakat qildik. O'quvchilar orasidagi muloqotni tashxislashning muhim parametrlaridan biri – foydalanilgan texnik vositalarning miqdori, boshqa bir tomondan esa, ulardan foydalanishning mosligini kuzatishdan iborat edi. Tashxislashning bunday tizimi o'ta ishchan bo'lib, uni amalga oshirish uchun o'qituvchidan katta mahorat va ko'p vaqt talab qilinadi. Muloqot madaniyati darajasini baholashning murakkabligi shundaki, o'quvchilar muloqot jarayonida o'zlarining birgalikdagi harakatlarini boshqarishning murakkab tizimlaridan foydalanadilar. Agar hamkorlikdagi vaziyat tahlil etilsa, mazkur vaziyatda ishtirok etadigan o'quvchilar bu jarayonda amal qiladigan qoidalarning mohiyatini har doim ham anglab yetmaydilar.

Keng ma'noda o'quvchilarning muloqot madaniyati ularning shaxslararo munosabatlarga kirisha olish layoqati, idroki, shaxslararo muloqoti hamda shaxslararo hamkorligi demakdir.

Shaxslararo munosabatda kommunikatsiya faqatgina muloqot emas, balki:

- odamlar orasida muayyan tarzda shaxslararo munosabatlarning vujudga kelishi;
- bu munosabatlarning o'zgaruvchan xarakter kasb etishi;
- fikrning so'zning asl ma'nosiga har doim ham teng bo'lmasligi kabilarda namoyon bo'ladi.

Muloqotning interfaol jihatlarini aniqlashda vaziyat parametrlari va tavsifini o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki, bu jarayonda o'zaro aloqalar amalga oshiriladi. Bugungi kunga kelib, vaziyatli yondashuvda muloqot tahlilining yetakchi nuqtasi kechadigan jarayon sifatida vaziyatning parametrlari namoyon bo'ladi. Bu jarayonda ko'proq rivojlanish imkoniyati vujudga keladi.

Muloqot madaniyati tushunchasi ostida esa, umumiy madaniyatlilik tushuniladi. Umumiy madaniyatlilik tarkibiga shaxsning ko'nikmalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy aloqalar doirasidagi muloqot ko'nikmalari anglanadi. Ular o'zaro aloqa jarayonida takrorlanadigan vaziyatlarni boshqarish imkoniyatiga ega. Shuningdek, shaxslararo munosabatlarda ko'zda tutilgan maqsadga erishish imkonini beradi.

O'quvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirish muammosini o'rganar ekanmiz, bevosita muloqot jarayonida unda mujassamlashgan tayyorlik ko'rsatkichi sifatida muloqot madaniyati atamasi qo'llaniladi. Muloqot madaniyati tarkibiga muloqotga kirishuvchanlik va yopiqlikni kiritish mumkin. Muloqotga kirishuvchanlik atrofda odamlar bilan bir maromda aloqa o'rnatishga ko'maklashadi, yopiqlik esa, bu jarayonga to'sqinlik qiladi.

Y.N. Yemelyanovning ko'rsatishicha, shaxsning o'ziga xos rivojlanishi ijtimoiy munosabatlarning psixologik vaziyatlarga aylanishiga ko'maklashadi. Muloqotga kirishuvchanlik shaxsning yakuniy tavsifi emas. Shuning uchun ham, muloqotga kirishuvchanlik insonning ijtimoiy-ruhiy sifati hisoblanadi.

## TILSHUNOSLIK

O'quvchilarda muloqot madaniyatini egallash ijtimoiy jarayonlarda muvaffaqiyatga erishish imkonini beradi. Muloqot shaxslararo dolzarb hodisa bo'lib, bu hodisani tushunish natijasida vujudga keladi. U inson ruhiyatining kognitiv tarkibida ko'nikma va malakalar sifatida mustahkam o'rnatiladi. Uning yordamida shaxs atrofdagilar bilan aloqa o'rnatiladi.

Ijtimoiy intellekt – bu insonning ulkan layoqati bo'lib, intellektual, shaxsiy, muloqotga kirishuvchanlik va xulq-atvor qirralari negizida namoyon bo'ladi. U o'zida o'z-o'zini boshqarish jarayonining faollik darajasini mujassamlashtiradi. Bu esa shaxsning ijtimoiy aloqalarga tayyorligini ifodalaydi. Bu jarayonda axborotlar va inson xulq-atvorining interpretatsiyalashuvi, shaxslararo munosabatlar rivojlanishini bashorat qilish, o'zining atrof-muhitga uyg'unlashuvini ta'minlash imkonini beradi.

Moddiy olamdagi hodisalarni o'rganishda o'zining yuqori darajadagi yutuqlari bilan farqlanadigan insonlar shaxslararo muloqot sohasida yordamga muhtoj hisoblanadilar. Lekin ular tashqi tomondan qaraganda muloqot madaniyatiga ega bo'lgan shaxslar sifatida atrofdagilarga taassurot qoldiradilar. Shuning uchun ham, muloqotga kirishuvchanlikning ijtimoiy-pedagogik, psixologik jihatlarini o'rganar ekanmiz, uning asosida til orqali oddiygina ta'sir ko'rsatish maqsadi yotmaganligi, balki insonning hissiyotlari, fikrlari va harakatlari uyg'unligi ekanligini e'tirof etish lozim.

Insonning muloqot madaniyatini egallashiga ko'maklashadigan asosiy manba – uning hayotiy tajribalari, san'at, umumiy bilimdonligi, aql-zakovati hamda maxsus ilmiy metodlardir. Mazkur manbalar har bir inson uchun turlicha ahamiyat va xususiyat kasb etadi. Biroq, muloqot madaniyatining shakllanishida har doim hayotiy tajriba yetakchi o'rin egallaydi. Hayotiy tajriba tarkibida asosiy o'rinda shaxslararo muloqot tajribasi turadi. Bu bir tomondan muayyan ijtimoiy muhitga xos me'yorlar va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Boshqa tomondan esa, o'ziga xos individual xarakterga ega. U shaxsning individual o'ziga xosliklari va uning hayotidagi ruhiy voqelikka asoslanadi. Mazkur tajribaning dinamik yo'nalishlarini shaxsni ijtimoiylashtirish va individuallashtirish jarayonlari tashkil etadi. U insonning ijtimoiy rivojlanishi va vaziyatga moslashishini ta'minlaydi. Bu jarayonda shaxsda muloqot madaniyatining o'ziga xos yo'nalishi vujudga keladi.

Insonning hayotiy tajribasi uning kasbiy va ijtimoiy turmushdagi faoliyatini takomillashtirishni taqozo qiladi. Insonning muvaffaqiyatli kasbiy faoliyati kundalik madaniyati va kommunitiv xulq-atvori modelining shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, shaxsning umumiy bilimlari va zakovati ham muloqot madaniyatining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Umumiy bilim va zakovat tushunchasi ostida insonga xos bo'lgan muloqot madaniyati hamda tarixga taalluqli bo'lgan gumanitar bilimlarning ishonchli va tizimlashtirilgan zaxirasi tushuniladi. Mazkur bilimlarni har bir o'quvchi o'zlashtirishi zarur hisoblanadi. Shu tariqa, ilmiy metodlar muloqotga kirishuvchanlikning barcha manbalarini uyg'unlashtiruvchi tasvirlar, kontseptual asoslar, tushuntiruvchi manbalarni bashorat qilish imkonini beradi. Buning natijasida muloqot madaniyatini shakllantirishga yordam beradigan amaliy vositalarning izchil tizimi ishlab chiqiladi. Bu esa, o'quvchining kommunikativ quvvatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Barcha holatlarda shaxs uning tabiatini o'rganishga harakat qiladi. Shundagina u muayyan ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Har qanday shaxs muayyan ijtimoiy-ruhiy holatga kirishadi. Bu esa uni o'rab turgan ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liqdir. Muayyan tarixiy davrning o'ziga xos xususiyatlari shaxsning aniq ijtimoiy qatlamga mansubligini ifodalaydi. Muayyan kasbiy faoliyat shaxsning xarakterida o'z izini qoldiradi, unda xulq-atvor namunasini tarkib toptiradi.

O'quvchi nafaqat o'zaro aloqa jarayonining subyekti hisoblanadi, balki o'zi bajaradigan ijtimoiy hamda o'quv faoliyat subyekti hamdir. Har bir o'quvchi muayyan bir tarzda tengdoshlariga ta'sir ko'rsatadi. Chunki ular mehnat, o'qish, bo'sh vaqt haqida o'zaro muloqot qiladilar. Bu esa o'z navbatida o'quvchining o'zi va uni o'rab turgan muhitga ham ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, muayyan tadbirlarga ishtirok etish asnosida o'quvchi muloqot jarayonining subyekti sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida o'quvchilarda o'quv faoliyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda, o'quvchi – tarixiy jarayon ishtirokchisi sifatida unga ta'sir ko'rsatuvchi subyekt tarzida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham, o'quvchilarga nisbatan ijtimoiy-psixologik yondashuv uni ijtimoiy voqelik bilan aloqadorlikda o'rganishni taqozo qiladi. Birinchi navbatda ijtimoiy guruh sifatida o'quvchi o'zaro aloqaga kirishuvchi subyektlar sifatida namoyon bo'ladi. Shaxslar orasidagi aloqalar va ularni o'rab turgan ijtimoiy muhitning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq anglash uchun shaxs faoliyati nazariyasiga murojaat qilish lozim.

Inson muayyan faoliyatni bajarar ekan u ijtimoiy hayot sahnasida muayyan rolni bajarishga kirishadi. Jumladan, o'quvchi maktabda tahsil olar ekan, unga muayyan topshiriqlar beriladi. Ularni bajarish jarayonida esa aynan o'quvchi rolini amalga oshiradi.

O'quvchi muayyan ijtimoiy guruhning a'zosi hisoblanar ekan, boshqalar bilan aloqaga kirishib, bu jarayonda aniq nuqtai nazarni namoyon qiladi. U muayyan tizim doirasida ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Masalan, ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning har biriga xos bo'lgan nuqtai nazarni aniqlash mumkin.

Shaxsning nuqtai nazari birinchi navbatda ijtimoiy ahamiyatga ega bo'ladi. Masalan, o'quv munozarasi jarayonida har bir o'quvchining mustaqil nuqtai nazarini aniqlash mumkin. Bu o'quv vaziyatiga bog'liq nuqtai nazar, ijtimoiy voqelikka bog'liq nuqtai nazar, badiiy asar qahramoni haqidagi nuqtai nazar, o'quv topshirig'iga nisbatan nuqtai nazar tarzida ifodalanadi. O'qituvchilarda esa, o'quv mavzusi, har bir o'quvchining faoliyati, ularning bilish imkoniyatlari, o'zlashtirish darajasini baholashga oid nuqtai nazarlar mavjud bo'ladi.

Muayyan nuqtai nazarga ega bo'lgan shaxs huquq va burchga ega bo'ladi. Insonning o'z oilasi va qarindoshlari orasida tutgan mavqeyi ham alohida ahamiyatga ega. Bunda muayyan huquq va majburiyatlar munosabatlarni boshqaruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Har bir inson bir butun tarzda muayyan ijtimoiy mavqega ega bo'ladi. Bu esa uning mavqelari majmuini belgilaydi. Ayni bir inson muayyan kishilarga nisbatan o'qituvchi, o'rtoq, ota, aka, hamkasb mavqeyini egallashi mumkin. Insonning jamiyatda yoki muayyan kishilar orasida tutgan mavqeyi o'rganilar ekan, u bilan bog'liq bo'lgan boshqa nuqtai nazarlar inobatga olinadi. Xuddi mana joyda odamlar orasidagi o'zaro aloqadorlik namoyon bo'ladi. Bunda mavqelar va nuqtai nazarlarning o'zaro uyg'unligi inobatga olinadi. Masalan, o'qituvchining mavqeyi o'quvchi mavqeyini taqozo qiladi.

Mazkur munosabatlar jarayonida o'qituvchi ham, o'quvchi ham muayyan ijtimoiy munosabatlarga kirishadi. Bunday munosabatlar natijasida o'zaro muloqot vaziyati vujudga keladi. Mazkur vaziyat o'qituvchi va o'quvchilardan ham muayyan madaniyatni talab qiladi.

Maktabda o'qish davridayoq, ijtimoiylashish jarayonida o'quvchilar o'qituvchilar, atrofdegilar hamda ta'lim jarayonida muayyan mavqelar, vazifalar, kasblar haqidagi rasmiy va norasmiy bilimlarni o'zlashtiradilar. Maktabda o'quvchilarga jamoa joylarida va kishilar orasida o'zini qanday tutish lozimligi o'rgatiladi. U ta'lim jarayonida va atrofdegilarni kuzatish asosida ijtimoiy xulq-atvor me'yorlarini egallaydi. O'quvchi ta'lim muassasasiga qadam qo'yar ekan, u yerdagi tartib-qoidalar bilan tanisha boshlaydi. Bu uning yangi mavqeyini egallashiga imkon beradigan talablar hisoblanadi. Bu talablar umumiy tarzda va qismlarga bo'lingan holda butun ta'lim jarayonida o'quvchilarga taqdim etiladi. Bu jarayonda ular muayyan kasb-hunarga yo'naltiriladilar va shu kasbga oid dastlabki bilimlardan xabardor bo'ladilar.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, faqatgina bilimlarning o'zi o'quvchining ijtimoiy me'yorlarni egallashi uchun yetarli bo'lolmaydi. Insonning muloqotga kirishish faoliyati ikki yo'nalishda namoyon bo'ladi: uning ijtimoiy mavqeyi doirasida va o'zligi doirasida. Ruhshunoslarning ta'kidlashlaricha, o'zlikning vujudga kelishi shaxsda o'z-o'zini anglashning hosil bo'lishi demakdir. Inson bu jarayonda o'z-o'zi, atrof-muhit va unga zid bo'lgan holatlarni anglab yetadi. Insonning muloqot imkoniyatini egallashidagi muhim yo'nalishlardan biri – internalizatsiyadir. Bunda insonning muayyan mavqeyi bilan bog'liq holatlarga emas, balki uning ma'naviy jihatdan muloqotga tayyorligi ham inobatga olinadi. Shaxsning muloqotga kirishishdagi muvaffaqiyati uning o'zligini anglashi bilan bog'liqdir. Agar inson o'z mavqeyini anglasa va bu jarayonda o'zligini namoyon qila olsa, u muloqot madaniyatini egallash jarayonida o'z oldiga muayyan talabalar qo'yadi va talablarni bajarishga astoydil kirishadi. Bu jarayonda muloqot madaniyatini egallash uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishga ehtiyoj vujudga keladi. Buning uchun shaxsning o'ziga xos xususiyati sifatida mas'uliyatlilikning muhimligini alohida ta'kidlash taqozo qilinadi. Chunki, mas'uliyatlilik – shaxsning muloqot jarayoniga bo'lgan yondashuvini belgilaydi.

### XULOSA

Muloqot jarayonida har bir o'quvchi muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Muloqot jarayoni subyektlarining mayllari, ehtiyojlarining amalga oshmasligi natijasida bir qator qiyinchiliklar va muammolar vujudga keladi. O'qituvchining muhim vazifalaridan biri xuddi mana shu qiyinchiliklarni o'z vaqtida aniqlab ularni bartaraf etish imkoniyatlardan foydalanishdan iborat.

Agar 5-9-sinf o'quvchilarida muloqot madaniyati ko'nikmalari muayyan nazariy yondashuvlar, ijtimoiy-psixologik asoslarga tayangan holda shakllantirilsa, bu jarayonda

TILSHUNOSLIK

o'qituvchining bajaradigan vazifalari aniq ko'rsatilsa, o'quvchilarda muloqot madaniyati ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon aniq shakllar, vositalar, usul va metodlar asosida tashkil etilsa, mazkur jarayonning samaradorlik darajasi ortadi hamda o'quvchilarda muloqot madaniyatiga oid ko'nikmalarning muayyan darajasi tarkib topadi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Nikonova O. V. Formirovaniye kulturi obsheniya mladshix shkolnikov: Avtoref. dis. kand. ped. nauk. Bryansk. 2001. 18 s. (Nikonova O. V. Formation of the kulturi of the younger school students: Abstract of the dissertation of the Candidate of Pedagogical Sciences. Bryansk. 2001. 18 p.)
2. Saidov M. O'zbek maktablarining 5-sinflarida ona tili ta'limi jarayonida tafakkurni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari va ulardan foydalanish metodikasi. Ped.fan.nomz. disser. T.: 1993. 123-b. (Saidov M. Teaching tasks and methods of their use, which develop thinking in the process of native language education in the 5th of Uzbek schools. Ped.science. disser. T.: 1993. 123-p.)
3. Safarova R.G., Yusupova F.I., Qosimova D.X., Muzaffarova F.B., Xolmatova Z.A., Sadullayev B.B., Kudaynazarov A.K. O'quvchilarda hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini loyihalashtirish parametirlari.-T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2016. (Safarova R.G., Yusupova F.I., Qosimova D.X., Muzaffarova F.B., Xolmatova Z.A., Sadullayev B.B., Kudaynazarov A.K. Teaching tasks and methods of their use, which develop thinking in the process of native language education in the 5th grades of Uzbek schools. Ped.science.nomz. disser. T.: 1993. 123-b. Design of the process for the formation of cooperation skills in studentstrish parameters.- T.: "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2016. )
4. Safarova R.G., Yusupova F.I., Ruziyev F.J., Kosimova D.H., Dilova N.G', Xolmatova Z.A. O'quvchilarda do'stona munosabatlar asosida hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining mazmuni.-T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi», 2015. (Safarova R.G., Yusupova F.I., Ruziyev F.J., Kosimova D.H., Dilova N.G', Xolmatova Z.A. The content of the process of formation of cooperation skills in students on the basis of friendly relations.-T.: "National Encyclopedia of Uzbekistan", 2015. )